

BO'LAJAK O'QITUVCHILARDA YOZMA NUTQNI TAKOMILLASHTIRISHDA BUYUK MUTAFFAKIRLAR FIKRLARIDAN FOYDALANISH.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20677528>

Abdulxayeva Musharraf Usmonjon qizi

Qo'qon davlat universiteti

Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya

Ushbu maqolada bo'lajak o'qituvchilarning yozma nutqini rivojlantirishda buyuk mutaffakkirlar: A.Navoiy, Abu Nasr Forobiy, Ibn Sino, Yusuf Xos Hojib, Amir Temur kabi mutaffakkir olimlarning nutq haqidagi fikrlari to'g'risida tushunchalar berilgan.

Kalit so'zlar

nutq, til, yozma nutq, og'zaki nutq, energio, ergon, tafakkur.

Аннотация

В данной статье изложены идеи таких великих мыслителей, как А. Наваи, Абу Наср Фараби, Ибн Сина, Юсуф Хос Хаджиб, Амир Темур о развитии письменной речи будущих учителей.

Ключевые слова

речь, язык, письменная речь, устная речь, энергия, эргон, мышление.

Annotation

In this article, the ideas of great thinkers such as A. Navai, Abu Nasr Farabi, Ibn Sina, Yusuf Khos Hajib, Amir Temur about the development of the written speech of future teachers are given.

Key words

speech, language, written speech, oral speech, energy, ergon, thinking.

"Inson ma'naviy kamolotga erishuvda, jamiyatning madaniy - ma'rifiy rivojida ona tilining o'rni favqulodda muhimdir. Til milliy ma'naviyat, ma'rifat va madaniyatning eng holis va xira tortmas ko'zgidir. Hadisi shariflarda "Kishining zebu ziynati, go'zalligi uning tilidadir" deyiladi. Haqiqatdan ham insonning fikrlashi, nutqi qanchalik boy bo'lsa u bilan uzoq suhbatlar qurgingiz keladi. Masalan, o'qituvchilik kasbini olib qarasak o'qituvchi har bir bolaning qalbiga kirib bora olishi kerak bunda esa hech shubhasiz uning so'z boyligi va har bir so'zni

to'g'ri mahorat bilan qo'llay olishi zarurdir. Shundagina o'qituvchi bolalarni o'z ortidan ergashtira oladi.

Inson aqliy faoliyatining eng oliy mahsullari, tafakkur "mevalari" til va nutq orqali yuzaga chiqadi. Biz nutq haqida ma'lumot berishdan avval til va nutqni bir-biridan farqlab olishimiz lozimdir. Sababi "til" va "nutq" degan terminlar ko'pincha bir xil ma'noda ishlatiladi. Shu sababdan "til" va "nutq" tushunchalarini ko'plab olimlarning fikrlari orqali ko'rib o'rganib chiqamiz.

"Til va nutq hodisalarini o'zaro farqlab yondashish dastlab VIII-IX asrlarda shakllangan arab tilshunosligining til o'rganish usullarida, keyinchlik esa V.Glumboldtning tildagi "energio" (harakat, jarayon, kuch) va "ergon" (mahsulot), A.Shteyntalning tildagi "barqaror mohiyat" va "harakatdagi kuchlar", Boduen de Kurtenening "tildagi barqarorlik va o'zgaruvchanlik" haqidagi ta'limotlarida uchratamiz. Lekin til bilan nutq hodisalarini va ularga xos birliklarni tom ma'noda ilmiy-nazariy hamda amaliy farqlash; til va nutq birliklarining mohiyatini ochish yo'llari, "til" va "nutq" tushunchalariga batamom yangi mazmun berilishi F. de Sosyur va uning izdoshlari yaratgan ta'limot bilan bog'liqdir" deb o'rganamiz.

Lekin "til va nutq odobi, nutqiy ma'daniyat, nutq san'ati haqidagi fikrlar, ayniqsa, Alisher Navoiy ijodida yuqori darajada aks etgan" ini ko'rishimiz mumkin. Masalan, A.Navoiyning muhtasham "Hamsa" sining barcha dostonlari (alohida-alohida boblar) da, "Mahbub ul-qulub", "Muhokamat ul-lug'atayn", "Nazm ul-javohir" va boshqa ko'plab asarlarida so'zning buyuk qudrati va nutq mahoratining xosiyatiga oid betakror fikrlarni bayon qilgan. Ayniqsa, "Muhokamat ul - lug'atayn" asarini o'qib o'rganib chiqsak. Bu asar o'zbek tilining bitmas tunganmas fikr bayon qilish imkoniyatlariga ega ekanligini, uning har qanday fikrni ham nazmda to'la va chiroyli ifoda etishga qodirligini ilmiy va amaliy dalillar asosida isbot qilib beradi. Ushbu asarda A.Navoiy ko'ngilni dengizga, so'zni durga, so'zlovchini esa g'avvosga qiyoslaganini ko'rishimiz mumkin. Demak bu fikrlardan bilinadiki til - umumiylikka, nutq esa xususiylikka egadir.

Bundan tashqari A.Navoiy o'zining "Mahbub ul-qulub" asarida shunday deydi: "Til muncha sharaf bila nutqning olatidur va ham nutqdirki, gar nopisand zohir bo'lsa, tilning ofatidur..." ya'ni, tilning shunchalik sharafi bo'lgani bilan u nutqning qurolidir, agar u o'rinsiz ishlatilsa, tilning ofatidir deya ta'rif berganliklarini ham ko'rishimiz mumkin. Shunday ekan bola nutqini rivojlantirish, eng avvalo, til qobiliyatini shakllantirishni talab qiluvchi muloqot shakllarini rivojlantiruvchi demakdir.

Til - nutq muhiti bolaning chaqaloqligida yaratilishi va chaqaloqqa bir tomonlama til ta'siri o'tkazish muhim, u hal qiluvchi ahamiyatga ega. Ushbu fikrning isboti sifatida XX asrda Hindistonda ro'y bergan voqeani keltiramiz. U

yerda olimlar ikki qizchaga duch kelishgan biri 2-yoshda, biri esa 7-8 yoshda bo'lgan. Ular gapirishni umuman bilishmagan, xatti-harakatlari ham bo'rilarga xos bo'lgan. Hindistonlik psixolog olim ularni avval uyida, keyinchalik kichigi kasallikka chalinib vafot etganidan keyin kattasini bolalar uyida tarbiyalagan. Bu qiz yana 10 yil yashagan lekin xatti-harakatlarida, til va nutq ma'daniyatida aytarli natijaga erisha olmagan. Qiz 10 yil davomida 45 taga yaqin so'zni o'rgangan, biroq o'rgangan so'zlaridan gap tuza olmagan. Bundan olimlar va psixologlar shunday xulosaga kelishgan. Til ijtimoiy hodisadir, u jamiyat taraqqiyoti va mehnat faoliyati natijasida rivojlanadi.

Ulug' bobokalonimiz Amir Temur nutqiy ifodaning aniqligi va rostligini yuksak qadrlagan, boshqalardan ham shuni talab qilgan.

Buyuk mutafakkirlarning til va nutq haqidagi qarashlari bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Abu Nasr Forobiy inson kamolotida ilm va so'zning o'rnini alohida ta'kidlab, fikrni aniq va ravon ifodalashni komillik belgisi sifatida baholagan. Ibn Sino esa insonning bilim va tafakkuri nutq orqali namoyon bo'lishini qayd etib, nutq madaniyatini tarbiya bilan bog'lagan. Yusuf Xos Hojib "Qutadg'u bilig" asarida tilning inson hayotidagi o'rne, so'zning qadr-qimmati va uni o'rinli ishlatish masalalariga katta e'tibor qaratgan. Amir Temur esa davlat boshqaruvi va ijtimoiy munosabatlarda so'zning aniqligi, haqqoniyligi hamda ta'sirchanligini muhim mezon sifatida ko'rgan.

Bo'lajak o'qituvchilarning yozma nutqini takomillashtirishda ushbu mutafakkirlar merosidan foydalanish talabalarda tilga hurmat, so'z mas'uliyati, fikrni mantiqiy va izchil bayon etish ko'nikmalarini shakllantiradi. Ularning asarlaridan namunalar asosida matn tahlili, esse yozish, fikrlarni qayta bayon qilish, maqol va hikmatli so'zlarning mazmunini sharhlash kabi mashg'ulotlarni tashkil etish yozma nutqning rivojlanishiga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, buyuk mutafakkirlarimizning til va nutq madaniyatiga oid qarashlari bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligini takomillashtirishda muhim nazariy va amaliy manba hisoblanadi. Yozma nutqni rivojlantirish orqali talabalarning tafakkuri, ijodiy fikrlashi, muloqot madaniyati hamda pedagogik mahorati yuksaladi. Shu sababli pedagog kadrlar tayyorlash jarayonida mutafakkirlar merosidan samarali foydalanish, ulardagi ilg'or g'oyalarni ta'lim amaliyotiga tatbiq etish dolzarb vazifalardan biri bo'lib qolmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. N.Mahmudov "O'qituvchi nutqi ma'daniyati. – Toshkent. 2007. – B. 3.
2. H. Ne'matov, O. Bozorov "Til va nutq" Toshkent: "O'qituvchi" 1993. – B.7.

3. A.J.Omonturdiyev, Sh.I.Abduraimova "O'zbek nutqi va uslubiyati" (bakalavr va magistrLAR uchun uslubiy qo'llanma) Toshkent-2016. – B.14.
4. A.Navoiy. Muhokamat ul-lug'atayn. 15-tom. T.14. – T.: 1967
5. Q.Musayev. Badiiy tarjima va nutq madaniyati. – Toshkent. 1967.
6. Musharraf, A. (2023). BOSHLANGAN SINIF O'QUVCHILARIGA SO'ZLAR MANOSINI TUSHINTISH METODIKASI. Ustozlar uchun , 24 (3), 10-13.
7. Abdulxayeva, M. U. (2024). TIL VA NUTQ HAQIDA OLIMLARNING FIKRLARI. Экономика и социум, (5-1 (120)), 32-35.
8. Abdulxayeva, M., & Mukhtaram, I. (2024, may). ERTAKLARI-AJODALARIMIZNING TA'LIMLARI VA NASILLARI. Xalqaro global konferensiyada (1-jild, 7-son, 125-128-betlar).
9. Abdulxayeva, M. va Umidaxon, M. (2024, may). BOSHLANGICH SINFLARDA XALQ OG'ZIQ IJODINING AHAMIYATI. Xalqaro global konferensiyada (1-jild, 7-son, 129-132-betlar).
10. Abdulxayeva, M., & Gulchiroy, M. (2024, May). IKKI NUQTA VA UNING QO'LLANILISH O'RINLARI. In International Global Conference (Vol. 1, No. 7, pp. 66-68).
11. Abdulxayeva, M., & Umidaxon, A. (2024, May). BOSHLANG'ICH SINFLARDA MATEMATIKA O'QITISHDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISH. In International Global Conference (Vol. 1, No. 7, pp. 69-74).
12. Umidaxon, A. (2023). BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING BILIMLARINI BAHOLASHDA MANTIQUIY MASALALARNING O'RNI. Ustozlar uchun, 24(3), 17-24.
13. Musharraf, S. M. K. A., & Baydemir, H. (2024, May). VERGUL VA UNING USTIDA MASHQLAR. In International Global Conference (Vol. 1, No. 7, pp. 121-124).
14. Musharraf, A. (2023). ONA TILI VA O'QISH SAODATI DARSLARIDA DIDAKTIK USULLARNING O'RNI. Ochiq kirish ombori , 9 (11), 105-108.
15. Musharraf, A. (2023). BOSHLANGANCHI SINFLARDA TURLI USULLARDAN FOYDALANGAN DIKTATLAR OLIISH METODIKASI. Galaxy xalqaro fanlararo tadqiqot jurnali , 11 (11), 887-891.
16. Абдулхаева, М., & Эргашалиева, С. (2023). РОЛЬ «УЗБЕКСКИХ НАРОДНЫХ СКАЗОК» НА УЧЕБНЫХ УРОКАХ. Talqin va tadqiqotlar, 1(20).
17. Abdulhayeva, M. (2023). EDUCATIONAL DICTATION AND ITS TYPES.
18. Musharraf, A. (2023). EDUCATIONAL DICTATION AND ITS TYPES. Open Access Repository, 9(6), 211-216.

19. Abdulxayeva, M. (2023). AKTdan foydalangan holda diktant olish metodikasi. Scienceweb academic papers collection.
20. Abdulxayeva, M. (2023). O'Z DIKTANT YOKI YODDAN YOZUV DIKTANTI. Interpretation and researches, 1(1).
21. Mirhojiddinovna, JD, Shavkatovna, AM, & Alijonovna, MD (2022). Badiiy matnlardagi noan'anaviy birikmalar va qishloq xo'jaligi atamalarining lingupoetik xususiyatlari. Pozitiv maktab psixologiyasi jurnali , 6 (11), 1599-1604.
22. Abdulxayeva, M. Birinchi sinf o'quvchilarining yozma nutqini rivojlantirishda diktantning o'рни. Fan, muhandislik va texnologiya sohasida innovatsion tadqiqotlar xalqaro jurnali .
23. Musharrafa, A. va Nozima, NM (2023). Ona tili va o'qish savodxonligining tabiatshunoslik bilan aloqasi.
24. Abdulxayeva, M. (2023). ONA TILI VA O 'QISH SAVODXONLIGI DARSLARIDA DIDAKTIK METODLARNING TUTGAN O 'RNI. Scienceweb academic papers collection.
25. Yoqubjonova G.X. IMPLEMENTATION OF INTERDISCIPLINARY RELATIONSHIP IN TEACHING OF READING AND SCIENCES IN PRIMARY GRADES. International Journal of Education, Social Science & Humanities. Finland Academic Research Science Publishers ISSN: 2945-4492 (online) | (SJIF) = 7.502 Impact factor 22-01-2024. 29-36 bet
26. Yoqubjonova G.X. TA'LIM JARAYONIDA INTEGRATSIYANING HOZIRGI ZAMON MUAMMOLARI. AMERICAN JOURNAL OF EDUCATION AND LEARNING ISSN: 2996-5128 IMPACT FACTOR Volume-2| Issue-5| 2024 Published: |30-12-2024| 835-840 bet
27. Yoqubjonova G.X. MODELS OF DESIGNING AND TEACHING LESSONS BASED ON STEAM TECHNOLOGY IN PRIMARY EDUCATION. AMERICAN JOURNAL OF EDUCATION AND LEARNING ISSN: 2996-5128 (online) | ResearchBib (IF) = 9.918 IMPACT FACTOR Volume-3| Issue-6| 2025 Published: |30-06-2025| 133-138 bet
28. Yoqubjonova G.X. SCIENTIFIC AND METHODOLOGICAL SOURCES AND HISTORICAL DEVELOPMENT OF THE STEAM EDUCATION CONCEPT. International Journal of Education, Social Science & Humanities. Finland Academic Research Science Publishers ISSN: 2945-4492 (online) | (SJIF) = 8.09 Impact factor 22-05-2025 630-636 bet
29. Yoqubjonova G.X. APPLICATION OF THE STEAM EDUCATION MODEL IN INTERNATIONAL EXPERIENCE AND METHODOLOGICAL AND ORGANIZATIONAL FORMS. International Journal of Education, Social Science &

Humanities. Finland Academic Research Science Publishers ISSN: 2945-4492 (online) | (SJIF) = 8.09 Impact factor 22-06-2025 | 12-19 bet

30. Yoqubjonova G.X. MODELS OF DESIGNING AND TEACHING LESSONS BASED ON STEAM TECHNOLOGY IN PRIMARY EDUCATION. AMERICAN JOURNAL OF EDUCATION AND LEARNING ISSN: 2996-5128 (online) | ResearchBib (IF) = 9.918 IMPACT FACTOR Volume-3 | Issue-6 | 2025 Published: |30-06-2025| 133-138 bet

31. Yoqubjonova G.X. STEAM TA'LIMI ORQALI IJODIY VA TANQIDIY FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISH YO'LLARI International Journal of Education, Social Science & Humanities. Finland Academic Research Science Publishers ISSN: 2945-4492 (online) | (SJIF) = 8.09 Impact factor

32. Yoqubjonova G.X. O'QUVCHILARNING IJODIY VA TANQIDIY FIKRLASHINI RIVOJLANTIRISHDA STEAM TA'LIMNING O'RNI AMERICAN JOURNAL OF MULTIDISCIPLINARY BULLETIN ISSN: 2996-511X (online) | ResearchBib (IF) = 9.512 IMPACT FACTOR Volume-4 | Issue-5 | 2025 Published: |30-05-2026|